

## **Davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklik va yuridik klinikalar faoliyati**

**Urayimova Shohsanamxon**

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar fanlarni

o‘qitish metodikasi huquq ta’limi magistri

[qochqorovashohsanamxon@gmail.com](mailto:qochqorovashohsanamxon@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik institutlarda tahsil olayotgan talabalarning huquqiy bilimlarini oshirish kelajakda jamiyat azolarining huquqiy savodxonligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli pedagogik ta’lim muassasalari va davlat organlari o‘rtasida samarali ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish dolzarb bugungi kunda masalalardan biridir. Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, ta’lim tizimida huquqiy ta’lim va tarbiya jarayonlarini zamonaviy mexanizmlar asosida tashkil etish, davlat organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali talabalarning huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu sababli pedagogik institutlar va davlat organlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik — bu ta’lim sifati va yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan hamkorlik faoliyatidir. Ushbu sheriklik doirasida sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, adliya boshqarmalari hamda boshqa davlat tashkilotlari bilan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, seminar-treninglar, davra suhbatlari va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Davlat organlari mutaxassisleri ishtirokida o‘tkaziladigan uchrashuvlar talabalarning amaliy huquqiy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

Keys-stadi, debat, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar asosidagi mashg‘ulotlar talabalarning huquqiy tafakkurini rivojlantiradi. Normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllanishiga olib keladi.. Talabalarni Konstitutsiya, qonunlar va boshqa

me'yoriy hujjatlar bilan ishlashga o'rgatish ularning huquqiy savodxonligini oshiradi. Ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish. "Yosh huquqshunos", "Huquq bilimdonlari" kabi loyihalar yoshlarning huquqiy faolligini kuchaytiradi. Raqamli platformalardan foydalanish onlayn seminarlar, elektron resurslar va huquqiy axborot portallari orqali talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi. Pedagogik institutlar va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligi quyidagi natijalarda namoyon bo'ladi: talabalar huquqiy madaniyatining oshishi; jamiyatda qonunlarga hurmat hissining shakllanishi; fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishi; huquqbuzarliklarning oldini olish, faol fuqarolarning ko'payishi, yoshlarning ijtimoiy faolligi ortishi. Tadqiqot metodologiyasi mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, anketa-so'rovnoma va suhbat metodlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganiladi.

Davlat organlari bilan pedagogik institutlar o'rtasida ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish mavzusi zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyatning amaliy jihatdan shakllantiruvchisi ta'lim muassasasi doirasidan tashqarida, real boshqaruv hamda huquqni qo'llash amaliyoti bilan tutashgan nuqtalarda tezroq va samaraliroq bo'ladi. Bu atamaga ta'rif beradigan bo'lsak, "Ijtimoiy sheriklik — davlat, ta'lim va jamoatchilik subyektlarining umumiy ijtimoiy natijaga yo'naltirilgan, majburiyat va resurslar taqsimoti aniq belgilangan hamkorlik tizimidir". Butun bir mexanizm sifatida "bu hamkorlik normativ-huquqiy asos, institutsional kelishuvlar, qo'shma dasturlar, amaliyot bazalari va natijalarni baholash indikatorlari orqali ishlaydi". Bu holat ayniqsa pedagogik institutlarda huquqiy bilimlar "nazariya–amaliyot" zanjirida sinovdan o'tishi zarur bo'lgan kompetensiyalarga aylanishiga olib keladi. Misol tariqasida, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat, adliya organlari, prokuratura yoki ichki ishlar bo'limlari bilan institutlar o'rtasida yuridik klinikalar, huquqiy targ'ibot laboratoriyasi, ma'muriy jarayon amaliyoti singari platformalar yo'lga qo'yilganda, talaba va o'qituvchi bir vaqtda normani o'rganadi va uni real vaziyatda qo'llash oqibatlarini ko'radi.

Raqamlar kesimida, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy ta‘limning amaliyotga yo‘naltirilgan komponentligini oshirish, bitiruvchilarning bandligini ta‘minlash hamda kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish bo‘yicha ko‘rsatkichlar maqsadli tarzda oshirilgani, hamkor tashkilotlar soni va amaliyot soatlari ulushi kengaygani ham sezilarli darajada kuzatiladi. “Ilmiy izoh shundan iboratki, huquqiy bilimlarning amaliy rivoji faqat bilish darajasida emas, balki qila olish va javobgarlik bilan qo‘llash darajasida shakllanadi. Bu esa sheriklikni boshqariladigan, o‘lchanadigan va institutlararo barqaror tizimga aylantirishni talab qiladi”.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi — davlat organlari va pedagogik institutlar o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish orqali huquqiy bilimlarning amaliy jihatdan rivojlantiruvchi mexanizmlarini ilmiy asoslash hamda institutsional modelini ishlab chiqishdir. Ta‘rif sifatida keltiradigan bo‘lsak maqsad amaliy rivojlanishni talabning huquqiy normalarni tahlil qila olish, hujjat tuzish, ma‘muriy hamda fuqaroviy muammolar bo‘yicha huquqiy maslahat era olish, profilaktika va targ‘ibot tadbirlarini rejalash hamda etik me‘yorlarga rioya qilgan holda huquqni qo‘llash amaliyotini belgilash va bajarishni ozlashtirishdir. Bu jarayonni mexanizmini ham ishlab chiqish joiz bo‘ladi albatta “Mexanizm doirasida vazifalar sheriklikning normativ dizayni, tashkiliy infratuzilmasi, o‘quv jarayoniga integratsiyasi va sifatni baholash bloklariga ajratiladi”. Misol tariqasida, tadqiqot ishi quyidagi aniq vazifalarni qo‘yadi: birinchidan, sheriklikning huquqiy asoslari va subyektlar vakolatlari muvofiqligini tahlil qilish, ikkinchidan, pedagogik institutlarda “huquqiy amaliy modul”larni ishlab chiqish, uchinchidan, davlat organlari bilan qo‘shma amaliyot bazalarini standartlashtirish, to‘rtinchidan, natijalarni KPI va rubrikalar asosida baholash; beshinchidan, xavf va muvofiqlik (compliance) talablarini ishlab chiqish. “Raqam va statistika jihatidan vazifalar bajarilishini o‘lchash uchun amaliyotga jalb qilingan talabalar ulushi, amaliy topshiriqlar soni, huquqiy maslahatlar bo‘yicha qayta murojaatlar ulushi, hujjatlarning xatolik koeffitsienti kabi ko‘rsatkichlar taklif etiladi”. Ilmiy jihatdan izzohlaydigan bo‘lsak vazifalarning bunday qo‘yilishi ijtimoiy sheriklikni tadbirlar

majmuasidan boshqariladigan tizimga o'tkazadi, chunki tizim asoslangan ish natijani takror ishlab chiqarish va sifatni nazorat qilish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda davlat organlari–pedagogik institutlar sherikchiligi huquqiy bilimlarni amaliy rivojlantirishga xizmat qiluvchi to'rt bo'g'inli integratsion model sifatida konseptuallashtiradi:” normativ muvofiqlik, o'quv-amaliy integratsiya, institutsional mentorlik va raqamli monitoring. Xulosa qilib aytganda, pedagogik institutlar va davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish talabalarning huquqiy bilimlarini rivojlantirishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hamkorlik orqali yoshlarning huquqiy ongi, fuqarolik mas'uliyati va jamiyatdagi ijtimoiy faolligi oshadi. Shu bois ta'lim tizimida davlat organlari bilan hamkorlikning innovatsion shakllarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik klinika — bu talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, aholiga bepul huquqiy yordam ko'rsatish hamda bo'lajak mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'limiy-amaliy tuzilma hisoblanadi. O'zbekistondagi yuridik klinikalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular talabalarni real huquqiy muammolar bilan ishlashga jalb etish orqali amaliy tayyorgarlik sifatini oshiradi. Yuridik klinikaning maqsadi Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida yuridik klinika faoliyatini tashkil etishning asosiy maqsadi: talabalarning huquqiy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash; huquqiy madaniyat va huquqiy ongni rivojlantirish; aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul huquqiy maslahat berish; pedagoqlarda huquqiy masalalarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish; ta'lim, mehnat va bolalar huquqlari sohasida amaliy tajriba orttirishdan iborat. Yuridik klinikaning asosiy vazifalari:

Talabalarga amaliy huquqiy faoliyatni o'rgatish.

Fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish va tahlil qilish.

Huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash.

Huquqiy targ'ibot va ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish.

Ta'lim muassasalari, mahallalar va davlat organlari bilan hamkorlikni rivojlantirish. Talabalarda kasbiy etika va mas'uliyat hissini shakllantirish.

### **Xulosa**

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida yuridik klinikalarni tashkil etish talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, huquqiy ta'lim sifatini oshirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Yuridik klinikalar nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlab, bo'lajak pedagoglarni nafaqat ta'lim beruvchi, balki huquqiy jihatdan savodli mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar, 2020. – 480 b.
2. Schön D. A. Reflektiv mutaxassis: mutaxassislarning amaliy faoliyat jarayonida fikrlashi. – Nyu-York: Basic Books, 1983. – 374 b.
3. Stuckey R. T. Huquqiy ta'limning eng yaxshi amaliyotlari: konsepsiya va yo'l xaritasi. – Columbia: Clinical Legal Education Association, 2007. – 261 b.
4. Yevropa Kengashi. Demokratik madaniyat kompetensiyalari: madaniy jihatdan xilma-xil demokratik jamiyatlarda teng yashash. – Strasburg: Council of Europe Publishing, 2016. – 92 b.
5. Usmonova, M.A. Ta'limda institutsional hamkorlik va boshqaruv mexanizmlari . — Toshkent : Yangi nashr, 2020. — 204 bet.
6. Ahmedov, R.T. Yuridik klinikalar: ta'lim va amaliyot integratsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2020. – 168 bet.
7. Ivanov, P.N. Universitet va davlat sektori hamkorligini raqamli monitoring qilish // Davlat boshqaruvi va ta'lim.- 2022.- № 4.- B. 60-98.DOI:10.2468/pae.2022.4.60.



8. Yuldashev, B.S. OTM–davlat organlari hamkorligini tashkil etish reglamentlari. — Toshkent: Adolat, 2024. — 210 bet.
9. . Kadirova, L.M. Ta’limda baholash rubrikalari va KPI: amaliy qo‘llanma. — Toshkent : Innovatsiya, 2021. — 160 bet.
10. Petrova, E.V. Oliy ta’limda yuridik klinikalar va komplaens masalalari // Huquqiy ta’lim tadqiqotlari jurnali. – 2025. – № 1. 22–55-betlar. – DOI: 10.5678/jles.2025.1.22.
11. <https://cyberleninka.ru>.
12. <https://president.uz>
13. <https://in.academy.uz>
14. <https://zenodo.org>
15. <https://unilibrary.uz>
16. <https://kutubxona.adpi.uz>
17. <https://soff.uz>
18. <https://wordwall.net>